

ENGINEER



international scientific journal

SPECIAL ISSUE

E-ISSN

3030-3893

ISSN

3060-5172



SLIB.UZ
Scientific library of Uzbekistan



A bridge between science and innovation



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**

Tashkent state
transport university



ENGINEER

A bridge between science and innovation

E-ISSN: 3030-3893

ISSN: 3060-5172

SPECIAL ISSUE

MARCH 27, 2026



engineer.tstu.uz

**“WOMEN IN INNOVATION AND SCIENCE”
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA VA FORUMI
ILMIY ISHLARI TO‘PLAMI**

Toshkent davlat transport universitetida 2026-yil 27-mart kuni “Women in Innovation and Science” xalqaro forumi ilmiy ishlari to‘plami chop etildi.

Mazkur nufuzli tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Transport vazirligi hamkorligida tashkil etilib, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek xalqaro ilmiy hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan muhim platforma hisoblanadi.

Konferensiya ochilish marosimida davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va yetakchi oliy ta’lim muassasalari vakillari ishtirok etdi. Jumladan, Toshkent davlat transport universiteti rektori G‘ulomov Abdulaziz Abdullayevich, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi vakili Ulmasova Lobarkhon Adilovna, Osiyo taraqqiyot banki eksperti Claire Charnac, Istanbul Aydin universiteti vasiylik kengashi raisi Mustafa Aydin, Belarus davlat transport universiteti rektori Kazakov Nikolay Nikolayevich hamda Qirg‘iziston Respublikasi Transport vazirligi vakili Dinara Moldokalieva ishtirok etdilar.

Konferensiya ilmiy dasturi doirasida plenar va panel sessiyalar, shuningdek ilmiy ma’ruzalar taqdimoti o‘tkazilib, ularda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot va ta’limga joriy etish, transport va aviatsiya sohasida innovatsion yechimlar, sanoat va IT sohasida texnologiya transferi, shuningdek ta’limda raqamli platformalar va intellektual tizimlar kabi dolzarb masalalar yoritildi.

2026-yil 27-mart kuni o‘tkazilgan “Women in Innovation and Science” xalqaro forumi ayollar yetakchiligi, innovatsiyalar va STEM sohalariga bag‘ishlangan bo‘lib, mamlakatimizda ayollarning ilm-fan va texnologiya sohalaridagi ishtirokini kengaytirish, ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan strategik maydon sifatida tashkil etildi.

Forum doirasida ayollar yetakchiligini rivojlantirish va rag‘batlantirish, xalqaro tajriba almashinuvi va ilmiy tarmoqlarni kengaytirish, yosh tadqiqotchi ayollar va PhD talabalarni qo‘llab-quvvatlash hamda innovatsion ekotizimlarda gender tenglikni ta’minlash kabi ustuvor vazifalar amalga oshirildi. Shuningdek, forumda ayollar yetakchiligi va STEM, gender tenglik va ilm-fan institutsional rivoji, ayollar tadbirkorligi va innovatsion startaplar, innovatsiya ekotizimlari va xalqaro hamkorlik, yosh ayol tadqiqotchilarni rivojlantirish, mentorlik va akademik tarmoqlar yo‘nalishlarida tematik sessiyalar tashkil etildi.

Forumda davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar vakillari, jumladan “OLIMA” uyushmasi raisi Murtazayeva Raxbar Hamidovna, “Sharq ayoli” xalqaro ayollar jamoat fondi raisi Tursunbayeva Saodat Gafurovna, Osiyo taraqqiyot banki eksperti Claire Charnac, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi vakili Ulmasova Lobarkhon Adilovna, Toshkent davlat transport universiteti rektori G‘ulomov Abdulaziz Abdullayevich, Qirg‘iziston Respublikasi Transport vazirligi vakili Dinara Moldokalieva hamda Indoneziyadan universitet dekani Yoga Prihatin ishtirok etdilar.



Shuningdek, forumda Yevropa va Osiyo davlatlaridan yetakchi olimlar, ekspertlar va yosh tadqiqotchilar keng qatnashdi.

Forum dasturiga ochilish marosimi, panel muhokamalar, ilmiy chiqishlar hamda professional rivojlanish bo'yicha workshoplar kiritilgan bo'lib, ular doirasida gender tenglik, ayollar karyerasini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion boshqaruv bo'yicha amaliy seminarlar tashkil etildi.

Mazkur tadbirlar Osiyo taraqqiyot banki (ADB), "OLIMA" — O'zbekiston xotin-qizlar olimlari uyushmasi, "Sharq ayoli" xalqaro ayollar jamoat fondi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), shuningdek Rossiya, Turkiya, Indoneziya va Qirg'iziston oliy ta'lim muassasalari hamda Belarus Milliy fanlar akademiyasi ilmiy institutlari hamkorligida o'tkazildi.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va forumning ahamiyati shundaki, ular xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, raqamli va barqaror rivojlanishni ta'minlash, shuningdek ayollarning ilm-fan va innovatsiya sohalaridagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur tadbirlar yosh olimlar va tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tajriba almashish hamda global ilmiy makonga integratsiyalashuvni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va forumning maqsadi zamonaviy ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini muhokama qilish, innovatsion yondashuvlar va ilg'or texnologiyalar bo'yicha ilmiy natijalar almashuvini ta'minlash, shuningdek xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari, shuningdek amaliyotda muhim natijalarga ega bo'lgan mutaxassislar o'z ilmiy ishlari bilan ishtirok etdilar.

Ushbu ilmiy to'plamda muhandislik, transport, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, innovatsion boshqaruv, gender tenglik va barqaror rivojlanish sohalarida faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlar, professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari jamlangan. To'plamda dolzarb ilmiy muammolar, zamonaviy yechimlar, nazariy va amaliy tadqiqot natijalari yoritilib, ushbu yo'nalishlarning bugungi holati va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari aks ettirilgan.

Mazkur nashr mamlakatimizda ilm-fan va innovatsion rivojlanishni ta'minlash, xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlash hamda yosh olimlar va tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, mazkur ilmiy to'plamda keltirilgan natijalar kelgusida ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, amaliyotga yo'naltirilgan innovatsion yechimlarni keng joriy etish hamda sohalararo integratsiyani chuqurlashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. To'plam materiallari nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki ishlab chiqarish sohasi mutaxassislari, doktorantlar va talabalar uchun ham foydali manba hisoblanadi.

Mazkur nashrda yoritilgan ilmiy g'oyalar va ilg'or yondashuvlar asosida yangi ilmiy izlanishlar olib borilishi, xalqaro ilmiy aloqalarning yanada rivojlanishi hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining takomillashishiga xizmat qilishi kutilmoqda.



Ensuring the priority of public transport and traffic safety in Tashkent

M.N. Usmanova¹^a

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This study examines the issues of ensuring road traffic safety in the public transport system of Tashkent city and creating a convenient and safe environment for pedestrians. It also analyzes the directions for the comprehensive development of public transport, the provision of high-quality and safe transport services to passengers, and the improvement of transport infrastructure. The paper highlights modern methods and effective solutions for enhancing traffic safety in public transport.

Keywords: public transport, traffic safety, road accidents, passenger vehicles, routes, buses, statistical observation, interviews, pedestrian traffic, traffic flow

Toshkent shahrida jamoat transporti ustuvorligi va harakat xavfsizligini ta'minlash

Usmanova M.N.¹^a

¹Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Toshkent shahar jamoat transporti tizimida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda piyodalarga qulay harakatlanish muhitini yaratish maqsadida kompleks rivojlantirish, yo'lovchilarga sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko'rsatish va transport infratuzilmasini takomillashtirishdan iborat. Shu bilan birga jamoat transportida harakat xavfsizligini ta'minlash.

Kalit so'zlar: jamoat transporti, harakat xavfsizligi, yo'l-transport hodisalari, yo'lovchi tashuvchi transport vositasi, yo'nalishlar, avtobuslar, statistik kuzatish, intervyu, piyodalar harakati, transport oqimini

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 aprel 2022 yil 190-sonli "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2 fevral 2022 yil 111-sonli "Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari Toshkent shahar yer usti jamoat transporti tizimini kompleks rivojlantirish, yo'lovchilarga sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko'rsatish, transport infratuzilmasini yaxshilash, harakat tarkibini barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy avtobuslar bilan yangilash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda piyodalarga qulay harakatlanish muhitini yaratish maqsadida soha mutaxassislari oldiga qator vazifalar yuklandi [1,2].

2. Tadqiqot metodologiyasi

Toshkent shahar yer usti jamoat transporti tizimida yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hukumatimiz tomonidan qator talablar qo'yilgan. Yo'lovchilarni tashish jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash javobgarligi haydovchilar zimmasida bo'ladi. Lekin yo'lovchilarni tashish jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash uchun aniq tadbirlar belgilashda asosiy tayanch ko'rsatma sifatida harakat xavfsizligi ko'rsatkichlarini har taraflama chuqur va obyektiv tahlil qilish natijalaridan olingan xulosalardan foydalaniladi: yo'lovchilarning harakat xavfsizligiga taalluqli «Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit» tizimiga kiruvchi har bir omilning faoliyatiga tegishli tadbir

va choralar ishlab chiqish uchun; biron-bir boshqaruv territoriyasidagi, vazirliklardagi va ularning korxonalaridagi falokatlar ahvolini, o'zgarish mohiyatini hamda istiqboldagi o'zgarishini bashorat qilish va harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish kerak. Yo'lovchilar majburiyatlarini va qo'yilgan talablarni bajarmasliklari oqibatida yo'l-transport hodisalari (YTH)ning sodir bo'lishini amaliyot isbotlagan. Ammo yo'lovchi tashuvchi transport vositasi YTHni sodir etganda yoki uning ishtirokchisiga aylanganda ham yo'lovchilar katta jismoniy va ma'naviy talafot ko'rishadi. Shu sababli ham yo'lovchi tashuvchi transport vositasi qaysi transport korxonasiga tegishli bo'lsa, shu korxonada harakat xavfsizligi ko'rsatkichlarini o'rganish va tegishli tadbirlar ishlab chiqish yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashning asosiy mezonlaridan belgilanadi.

Toshkent shahrida yer usti jamoat transportida yo'lovchilarni tashish avtobus, yo'nalishli va yo'nalishsiz taksilarda amalga oshirilmoqda.

Shaharda mulkchilikning turli shakllaridagi 468 ta tashuvchi tomonidan yo'lovchilarni tashish xizmatlari ko'rsatilmoqda, shundan 13 ta korxona, jumladan, 8 ta davlat ulushi bo'lgan korxona avtobus yo'nalishlarida, 55 ta korxona yo'nalishli taksi yo'nalishlarida va 400 ta korxona yo'nalishsiz taksilarda xizmat ko'rsatmoqda.

Jamoat transportining o'zaro bog'liqligini ta'minlash uchun xizmat qilayotgan 5 ta transport-o'tish bog'lamasi mavjud.

^a <https://orcid.org/0009-0002-9229-368>



2005 ta avtobus oraliq bekati mavjud bo'lib, 166 yo'nalishda xizmat ko'rsatadi. Velosiped transporti foydalanuvchilari uchun 12 ta ko'chada 100 km uzunlikdagi velosiped yo'laklari mavjud.

Yo'lovchilarga yo'nalishsiz taksi xizmati 11 000 dan ortiq litsenziyaga ega yengil avtomobillarda ko'rsatilib kelinmoqda.

2025-yil 1-yanvardan yo'lkira haqi to'lovining avtomatlashtirilgan tizimi joriy etilib, 100 foiz yo'lovchilar ushbu tizimdan foydalanmoqda. Mazkur tizim doirasida 5, 10, 15, 20 va 30 kunlik hamda imtiyozli oylik tarif rejalari joriy etilgan.

Avtomatlashtirilgan dispetcherlik boshqaruvi (ASDUM) tizimi joriy etilib, ushbu tizim orqali avtobuslar harakatini onlayn, oraliq bekatlardagi to'xtash vaqti, yo'nalishdagi harakat tezligi, avtobuslar oraliq masofasini, ya'ni intervalni nazorat qilish imkoniyati mavjud.

Yo'nalishlar va ularda harakatlanayotgan avtobuslar to'g'risida ma'lumot olish, manzilga yetib olishning optimal yo'nalishini belgilash kabi qulayliklarga ega bo'lgan «Toshkent transporti» mobil ilovasi ishga tushirilgan.

Shaharda 4 mingdan ortiq ko'cha mavjud bo'lib, ularning uzunligi 5 900 km, shundan avtomagistral — 462 km, asosiy ko'chalar — 445 km, shoh ko'chalar — 464 km, halqa ko'chalar — 1 481 km, ishlab chiqarish hududlaridagi ko'chalar — 145 km va mahalliy ahamiyatdagi ko'chalar — 2 896 kilometrni tashkil etmoqda.

Shaharda avtomobil transporti vositalari soni 497 360 tani tashkil etib, hududlardan kuniga o'rtacha 165 mingdan ortiq avtotransport vositalari kirib-chiqmoqda.

Toshkent shahrida 600 dan ziyod yirik chorrahalar va 40 mingta yo'l belgilari mavjud bo'lib, ular yordamida transport va piyodalar harakati tartibga solinadi. 115 ta svetofor yagona raqamlashtirilgan markaz tomonidan boshqarilmoqda.

Statistik kuzatish birlamchi statistik ma'lumotlarni to'plash va o'rganilayotgan obyekt bilan bog'liq barcha muhim faktlarni ilmiy jihatdan tashkillashtirilgan qayd etishni o'z ichiga oladi. Statistik kuzatish — bu ijtimoiy hodisalarni tavsiflovchi faktlar va ularning xususiyatlarini yagona, ishlab chiqilgan dastur bo'yicha ilmiy asoslangan qayd etish, ommaviy ma'lumotlarni to'plash.

Intervyu — jamoat transportidan foydalanish sabablari va tirbandliklarga munosabatni tahlil qilish uchun har tomonlama va sifatli ma'lumot to'plash hamda aholi, jumladan, haydovchilarning fikr va takliflarini o'rganish uchun ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotning mutlaqo maqbul usuli bo'lgan suhbat orqali amalga oshiriladi. Ushbu intervyu usulining o'ziga xos xususiyati shundaki, u mavzuga bir xil darajada qiziqqan ikki kishi o'rtasida jonli va norasmiy suhbatni o'z ichiga oladi. Suhbatdosh va respondent o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqa anketalar orqali olish qiyin bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun ko'plab afzalliklarni beradi.

Toshkent shahri aholisining tirbandlikka, jamoat transportiga munosabati va uni kamaytirish bo'yicha takliflarini o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rov tashkil etildi [14].

Unda jami 891 kishi ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 60,8 foizini avtomobil haydovchilari tashkil etdi. Shundan 10,3 foizi ayollardir.

So'rov natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Avtomobil	boshqarmasligini	ta'kidlagan
ishtirokchilarning:		
41,8	foizi	avtobus,
27,5	foizi	metro,
24,1	foizi	taksi,

1,7 foizi mikroavtobus xizmatidan foydalanishini, 4,9 foizi piyoda yurishini bildirgan.

Jamoat transportidan ko'proq ayollar (33,1%) va yoshlar (36,5%), shaxsiy transportdan erkaklar (33,1%) foydalanishi ma'lum bo'ldi.

Bildirilgan fikrlar orasida jamoat transporti, ya'ni avtobuslar uchun infratuzilmalarni yaxshilash, parkovkalarni to'g'ri shakllantirish, ko'pqavatli avtoturargohlar, piyodalar uchun yerosti o'tish yo'llari va ko'priklar qurish, metro liniyalarini kengaytirish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy amal qilinishini ta'minlash, raqamli boshqaruvga o'tish kabi takliflar ko'p uchraydi.

Toshkent shahar yer usti jamoat transport tizimidagi harakat xavfsizligini ta'minlashda quyidagi muammolar mavjud:

1. Toshkent shahrida transport oqimini boshqarish, jamoat transporti uchun chorrahalar o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish bo'yicha monitoring-tahlil ishlarini olib borish.

2. Toshkent shahrida yer usti jamoat transporti haydovchilarning mehnatini to'g'ri tashkil etish.

3. Yer usti jamoat transportida harakat xavfsizligi sohasi uchun kadrlar, ya'ni harakat xavfsizligi mutaxassisleri, haydovchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish.

4. Yo'lovchilarga yer usti jamoat transportidan foydalanishning xavfsiz harakatlanish qoidalarini o'rgatish.

5. Toshkent shahrida mavjud barcha chorrahalarini yo'l harakatini boshqarishning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga integratsiya qilish.

6. Toshkent shahrida yer usti jamoat transporti yo'l harakatini tashkil etish tizimining mukammal emasligi sababli yo'llar va chorrahalarda transport oqimi to'g'ri taqsimlanmagan hamda tirbandliklar darajasi yuqori, yo'l-transport hodisalari soni ortib bormoqda.

7. Asosiy magistral yo'nalishlarda transport harakatini tartibga solish choralari amalga oshirish, ya'ni jamoat transporti harakatiga ustuvorlik berish, yo'l belgilari va ko'rsatkichlarini o'rnatish.

8. Yo'lovchi tashish bilan band bo'lgan xususiy tashuvchilarning harakat xavfsizligini ta'minlash muammolarini o'rganish.

9. Toshshahartransxizmat AJ filiallarida harakat xavfsizligi faoliyatini tashkil etilishini baholash.

10. Toshkent shahrida yer usti jamoat transporti marshrutlarining harakat xavfsizligi talablariga mutanosibli.

11. Toshkent shahrida yer usti jamoat transportidan foydalanuvchi yo'lovchilar oqimi va ularning jamoat transportiga ehtiyojida harakat xavfsizligi talablarini o'rganish.

12. Toshshahartransxizmat AJ filiallarida harakat xavfsizligini ta'minlashda harakat xavfsizligi xizmati faoliyatini korxonaning boshqa bo'limlari faoliyati bilan muvofiqlashtirish.

13. Toshkent shahrida yer usti jamoat transporti marshruti yo'nalishida avtomobillarning yo'l bo'yi pullik to'xtash joylari tizimini tashkil etish.

14. Avtobus oraliq bekatlari infratuzilmasining xavfsizlik, qulaylik va shaharsozlik me'yorlariga mosligini baholash.

15. Toshkent shahrida yer usti jamoat transportining o'rtacha harakatlanish tezligining yo'lovchilarni tashish jarayonidagi harakat xavfsizligi talablariga mutanosibli.

16. Toshkent shahar yer usti jamoat transporti tizimida harakat xavfsizligini ta'minlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish.



3. Xulosa

Aniqlangan muammolarni hal qilish uchun Toshkent shahar jamoat transporti tizimida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi:

- Toshkent shahrida transport oqimini boshqarish, jamoat transporti uchun chorroahalar o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish bo'yicha monitoring-tahlil ishlarini olib borish, takliflarni ishlab chiqish va ularni joriy etish

- Yo'lovchi tashish bilan band bo'lgan xususiy tashuvchilarning muammolarini o'rganish va takliflar ishlab chiqish.

- Avtomobillarning avtomatlashtirilgan yo'l bo'yi pullik to'xtash joylarini tashkil etish.

- Shahar ko'chalar kesishmasida piyodalar va velosiped harakati xavfsizligini ta'minlovchi texnik vositalarni joriy etish.

- Shahar ko'chalarining har bir yo'nalishida uch va undan ortiq harakat polosalar mavjud bo'lganda, harakat yo'nalishlarini ajratuvchi xavfsizlik orolchalarni tashkil etish.

- Piyoda va velosiped yo'laklarini tashkil etishda, xalqaro tajribalarni hisobga olish, chorroahalar bilan kesishmalarda xavfsiz va to'siqsiz muhitni yaratish.

- Piyodalar harakatlanishi uchun ustuvorlik berish

- Transport oqimini oqilona boshqarish va tirbandliklarni kamaytirish bo'yicha chorroahalar va ko'chalar kesimida loyihalar ishlab chiqish;

- Soha bo'yicha sifatli kadrlar tayyorlanib, harakat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtiriladi;

- Yer usti jamoat transporti haydovchilari malakalarini oshirishning innovatsion metodlari taqdim etiladi, YHQ buzilishi va YTH lar soni keskin kamayadi;

- Yo'nalishdagi avtobuslarning o'rtacha tasarruf tezligini oshiriladi;

- Avtobus qatnovlari muntazamligi ko'tariladi;

- Yo'nalish harakat intervali qisqartiriladi;

- Shahar hududini jamoat transporti bilan to'liq qamrab olinadi va harakat xavfsizligini ta'minlanadi;

- Jamoat transportining jozibadorligini oshirishda harakat xavfsizligi ko'rsatkichlarini oshiriladi;

- Jamoat transporti qulay va ekologik toza harakat tarkibi bilan yangilansa, atrof-muhitga salbiy ta'siri kamayadi;

- Shahar markazida harakatlanayotgan engil avtomobillar sonining qisqartirilishi mezanizmida harakat xavfsizligini ta'minlash ko'rsatkichlarini qo'llaniladi;

- Velosiped transporti infratuzilmasining keng rivojlanishi imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar / References

[1] Prezident Mirziyayev Sh.M. "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 04.04.2022 yil 190-sonli qarori.

[2] O'zbekiston Respublikasi Q-900 sonli "Yo'l harakati to'g'risida" 27.07.2023 yil.

[3] 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

[4] Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 15 noyabrda 303-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududida yo'l-transport hodisalarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizom.

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrda «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-27-son Farmoni.

[6] Vazirlar Mahkamasining "Haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va stajirovkalarini amalga oshirish" to'g'risidagi 21 iyul 2022 yildagi 393-sonli qarori.

[7] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyulda PQ-3127-sonli "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori.

[8] "Avtomobilida tashuvchining yo'l harakati xavfsizligi xizmati to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2013 yil 26 dekabrda 2545-son bilan ro'yxatga olingan).

[9] "Avtomobilida tashuvchi tomonidan haydovchilarga yo'l harakati xavfsizligi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish tartibi to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2014 yil 13 mayda 2582-son bilan ro'yxatga olingan).

[10] "Avtomobil transporti haydovchilarining ish vaqti va dam olish vaqti to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2013 yil 9 sentyabrda 2506-son bilan ro'yxatga olingan).

[11] "Avtomobilida tashuvchining foydalanish xizmati va texnika xizmati to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2014 yil 9-dekabrda 2630-son bilan ro'yxatga olingan).

[12] Azemsha S.N., Karasevich. Sluzhba bezopasnosti dvizheniya avtomobil'nogo perevozchika. Gomel, 2016.

[13] System Analysis and Design. Alan Dennis, B.H. Wixon, R.M. Roth — 2012.

[14] A.A.Nazarov, M.N.Usmanova. Avtomobilida tashuvchi korxonalarida harakat xavfsizligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari: monografiya, Toshkent: TDTU, 2024. — 141 bet.

[15] Usmanova M.N. Yo'l harakati xavfsizligi metodologiyasi. Darslik, T: 2023, 208 b.

[16] Usmanova M.N. Transport korxonalarida harakat xavfsizligi xizmati faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash. TAYI xabarnomasi. 2017 y. 3-4 soni.

[17] Usmanova M.N. Yo'l-transport hodisalarining sabablarini aniqlash va ularning oldini olish chora-tadbirlari: monografiya. T.: TDTU, "Transport" nashriyoti, 2023. — 108 bet.

Mualliflar to'g'risida ma'lumot / Information about authors

**Usmanova
Maxira
Nuralieva /
Makhira
Usmanova**

Toshkent davlat transport universiteti, "Yo'l harakatini tashkil etish" kafedrası professori, i.f.n.
E-mail:

usmanovamahira11@gmail.com

Tel.: +998994812214

<https://orcid.org/0009-0002-9229-368>



N. Svetasheva, G. Yuldashova

Forecasting the development of China–Europe freight flows through Central Asia and Uzbekistan’s role as a transport and logistics hub.....106

N. Jarilkapova, Kh. Abdullaev

Application of artificial intelligence and GIS technologies for zoning areas at risk of sand drift on highways.....111

M. Usmanova

Ensuring the priority of public transport and traffic safety in Tashkent.....115

M. Urazova, D. Jumaeva

Project-based thinking and psychological-pedagogical disciplines: bridging theory and practice in higher education.....118

F. Atabaev, G. Begjanova, G. Tursunova, Z. Yakubjanova

Portland cement with limestone additive based on local raw materials.....122

N. Drobchenko

International engineering and landscape approaches to the planning of coastal territories in a sustainable urban environment.....127